

MONOLOGIK NUTQ TUSHUNCHASINING LINGVISTIK VA PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

*Gulhida Ikromova - FarDU katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Dilroz Axmadjonova - FarDU talabasi

Kalit so'zlar: monologik nutq, nutqiy faoliyat, lingvistik tahlil, psixolingvistik tahlil, til birliklari, nutqiy kompetensiya, og'zaki va yozma nutq, muloqot jarayoni, fikr ifodasi, nutq rivoji, nutqiy madaniyat, shaxs psixologiyasi, nutq strukturasining tahlili, kommunikativ yondashuv, ta'lim jarayonida nutqni shakllantirish, o'quvchi nutqi, pedagogik faoliyatda nutq, tafakkur va nutq munosabati, axborot uzatish jarayoni, lingvopsixologik yondashuv.

Annotatsiya: Ushbu maqolada monologik nutq tushunchasining lingvistik va psixolingvistik jihatlari tahlil qilinadi. Monologik nutqning nutqiy faoliyatdagi o'rni, uning shakllanish bosqichlari va kommunikativ ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, lingvistik nuqtayi nazardan monologik nutqning tuzilishi, til birliklari va nutqiy kompetensiya bilan aloqadorligi izohlanadi. Psixolingvistik tahlil doirasida monologik nutqning shaxs psixologiyasi, tafakkur jarayoni hamda muloqotdagi funksional xususiyatlari ochib beriladi. Maqola ta'lim jarayonida monologik nutqni shakllantirishning metodik ahamiyatini, o'quvchi nutqini rivojlantirishdagi samarali yo'llarni ko'rsatib beradi.

Til va nutq jamiyat hayotining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, inson tafakkuri va muloqotining ajralmas qismi hisoblanadi. Nutq orqali inson o'z fikrlarini ifodalaydi, bilimlarini boshqalarga yetkazadi va ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi. Nutqning asosiy turlari sifatida dialogik va monologik nutq alohida o'rin tutadi. Xususan, bulardan biri bo'lgan monologik nutq - bir kishi tomonidan aytiladigan nutq bo'lib, tinglovchilar so'zlovchining nutqini faqat idrok etadilar, lekin unda bevosita ishtirok etmaydilar. Bunday nutq monolog deb ataladi. Monologik nutq dialogik nutqga qaraganda

psixologik jihatdan murakkabroq. Bu soʻzlovchidan oʻz fikrlarini aniq, qatʼiy izchil bayon eta olishini talab qiladi. Shu bilan birga, insonning mustaqil fikrlashini, tafakkurining izchilligini va mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish malakasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Monologik nutq — soʻzlovchining oʻziga qaratilgan, boshqa shaxsning javob berishini talab qilmaydigan nutq shaklidir. Bu nutq turi odatda izchil, mantiqan bogʻlangan va tugallangan bayon shaklida namoyon boʻladi. Uning ogʻzaki (nutqiy bayon, notiqlik, hikoya) va yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) koʻrinishlari mavjud. Monologik nutqda mazmunni toʻliq ifodalash, grammatik jihatdan toʻgʻri qurilish va adabiy til meʼyorlariga rioya qilish muhimdir.¹

Monologik nutqning oʻziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- adabiy til;
- bayonotning batafsilligi, mantiqiy tugallanganligi, ohang va intonatsiya orqali fikrni taʼsirchan yetkazilishi;
- sintaktik qurilishi;
- monologik nutq bitta soʻzlovchi tomonidan taʼminlanishi.²

Bu nutq turi turli koʻrinishlarda uchraydi:

- Ichki monolog – personajning ichki kechinmalari, oʻylari;
- Ochiq monolog – personajning ovoz chiqarib, oʻz fikrini boshqalarga yoki oʻziga qaratib aytishi;
- Axborot beruvchi monolog – maʼlumotni yetkazishga qaratilgan;
- Targʻib qiluvchi monolog – bironi taʼsirga olish, oʻz fikriga koʻndirishga qaratilgan kabi.

Lingvistik nuqtayi nazardan, monologik nutq dialogik nutqdan farqli ravishda ichki motivlar bilan ragʻbatlantiriladi va mazmun tanlash hamda ifoda vositalari soʻzlovchining ixtiyoriga bogʻliq boʻladi. Monologik nutqning turlari — taʼsir qiluvchi, dramatik, lirik va hikoya qiluvchi shakllarda namoyon boʻlishi mumkin.

¹ OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

² Qodirova S.A. Ona tili oʻqitish metodikasi (Nutq oʻstirish metodikasi). Oʻquv qoʻllanma. – Buxoro: “Kamolot” nashriyoti, 2022. – 150 b.

Shuningdek, ochiq monologik nutqda soʻzlovchi fikrlarini baland ovozda bildirsa, ichki monologik nutqda fikrlar shaxsning ichki kechinmalari sifatida ifodalanadi.

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan, monologik nutqning shakllanishi inson tafakkuri, xotirasi, diqqat va emotsional holati bilan bevosita bogʻliqdir. Bolalarda monologik nutq besh yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. D. Elkoninning taʼkidlashicha, bolaning hayot tarzi, kattalar bilan oʻzaro munosabatlari va yangi turdagi faoliyatlari nutq shakli va vazifasining oʻzgarishiga olib keladi. Bola oʻz taassurotlarini, kechinmalarini va rejalarini kattalarga monologik tarzda ifodalay boshlaydi. Shu tariqa, hikoya qilish malakasi uning bilish faoliyatini, mantiqiy tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Monologik nutqning shakllanishi uchun bola tilning lugʻat boyligini, grammatik qurilishini va nutqiy vositalarini yetarli darajada egallagan boʻlishi zarur. Psixolingvistik jihatdan qaralganda, monologik nutq nafaqat bilimlarni bayon qilish, balki hissiy kechinmalarni ifodalash, tinglovchilarga taʼsir koʻrsatish va shaxsning kommunikativ ehtiyojlarini qondirish vazifasini bajaradi.

Ilmiy adabiyotlarda bolalarning monologik nutqini shakllantirish ularning tafakkur rivojlanishi bilan bevosita bogʻliq ekanligi qayd etilgan. Ruhshunoslar monologik nutqni bolalarda hikoya qilish, taassurotlarini ifodalash va muloqot jarayonida fikrlarini erkin yetkazish qobiliyatining muhim koʻrinishi sifatida talqin etadilar. Q. Shodiyeva tadqiqotlarida monologik nutqni rivojlantirish metodikasi keng oʻrganilib, bolalarni ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilish, qahramonlarning suhbatini ifodali soʻzlash orqali monologik nutqqa oʻrgatish samarali usullar sifatida koʻrsatilgan. Bolalarda monologik nutqni oʻstirishda hikoya qilish, qayta hikoya qilish, voqea-hodisalarni ketma-ket bayon etish, tavsiflash va sabab-oqibatli munosabatlarni izohlash metodlari muhim ahamiyat kasb etadi.³

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarning ravon soʻzlashuvi ularning nutq turlarini egallashi bilan chambarchas bogʻliq. Nutqni shakllantirishda dialogik va monologik nutqni rivojlantirish bir-birini toʻldiradi. Dialogik nutqning shakllanishi

³ Ismatullayeva G.E. Bolalarda monologik nutqni rivojlantirish usullari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – №3(11). – B. 150–156.

monologik nutqning rivojlanishiga zamin yaratadi, chunki muloqot jarayonida bola suhbatdoshining gapiga javob qaytarish orqali nutqiy tajriba to‘playdi. Monologik nutq esa bolaning mustaqil fikrlashini, izchil va mantiqan bog‘langan matn qurish qobiliyatini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning ijodiy nutqiy faoliyatini tizimga solish uchun har xil metod va usullardan foydalanishi mumkin. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri matnning o‘quv tahlili bo‘lib, u har xil nutqiy vaziyatlarni hosil qilish, dialogik muloqot uchun vaziyat yaratish, adabiy mavzularda monologik nutq turlaridan foydalanishga o‘rgatish orqali amalga oshiriladi.

Shu bois maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda monologik nutqni rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, monologik nutq lingvistik va psixolingvistik jihatdan tahlil qilinganda, uning inson tafakkuri, kommunikativ faoliyati va nutqiy malakalarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega ekani aniqlanadi. Bolalarda monologik nutqni o‘stirish mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun muhimdir. Shu bois ta’lim-tarbiyada monologik nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish pedagogik faoliyatning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [O‘zbekiston milliy ensklopediyasi](https://scientific-jl.org/obr). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil;
2. Qodirova S.A. Ona tili o‘qitish metodikasi (Nutq o‘stirish metodikasi). O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Kamolot” nashriyoti, 2022. – 150 b.
3. Ismatullayeva G.E. Bolalarda monologik nutqni rivojlantirish usullari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – №3(11). – B. 150–156.